(4). Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живём. М., 2004.
(5). Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. В.Н.Телия. Москва, "Языки рус. культуры", 1996.

Yo'ldosheva Charos Ollayor qizi (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti "Ingliz tili va adabiyoti" kafedrasi tayanch doktoranti)

COCA KORPUSIDA FLORA VA FAUNA NOMLARI BILAN BOG'LIQ BO'LGAN FRAZEOLOGIZMLARNING SEMANTIK VA FUNKSIONAL TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz tilidagi flora va fauna nomlari bilan bog'liq frazeologizmlar COCA korpusi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda ularning zamonaviy ingliz tilidagi qo'llanilishi hamda semantik va funksional xususiyatlari yoritiladi. Natijalar hayvon nomlari bilan bog'liq frazeologizmlar o'simlik nomlariga nisbatan ko'proq ekanini, hayvon obrazlari inson xulq-atvori va his-tuyg'ularini ifodalashda muhim rol o'ynashini, flora bilan bog'liq frazeologizmlar esa, asosan, jarayon va rivojlanish ma'nolarini anglatishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *flora, fauna, frazeologizm, frazeologik birliklar, COCA korpusi, metafora, chastota, korpus lingvistikasi.*

Юлдошева Чарос Оллаёр кизи (докторант, PhD, кафедра английского языка и литературы, Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруний)

СЕМАНТИЧЕСКИЙ И ФУНКЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ИДИОМ С НАЗВАНИЯМИ ФЛОРЫ И ФАУНЫ В КОРПУСЕ COCA

Аннотация. *В статье проводится анализ фразеологических единиц, связанных с наименованиями флоры и фауны в английском языке, на материале корпуса современного американского английского языка COCA. Рассматриваются особенности их употребления в современном английском языке, а также их семантические и функциональные характеристики. Результаты исследования показывают, что фразеологизмы с компонентами, обозначающими животных, встречаются чаще, чем фразеологизмы с названиями растений. Образы животных играют важную роль в выражении поведения, эмоций и отношений человека, тогда как фразеологические единицы, связанные с флорой, преимущественно отражают значения процессов и развития.*

Ключевые слова: *идиомы флоры, идиомы фауны, COCA, метафора, частотность, корпусная лингвистика.*

Yuldosheva Charos Ollayor kizi (PhD, student, Department of English Language and Literature, Urgench State University named after Abu Rayhan Biruni)

SEMANTIC AND FUNCTIONAL ANALYSIS OF IDIOMS CONTAINING FLORA AND FAUNA NAMES IN THE COCA CORPUS

Annotation *This article analyzes phraseological units related to flora and fauna in the English language based on the Corpus of Contemporary American English (COCA). The study examines their usage in modern English as well as their semantic and functional characteristics. The findings demonstrate that phraseological units containing animal names are more frequent than those involving plant names. Animal imagery plays a significant role in expressing human behavior, emotions, and attitudes, whereas phraseological units related to flora predominantly convey meanings associated with processes and deve+lopment.*

Keywords*: flora idioms, fauna idioms, COCA, frequency, metaphor, corpus linguistics.*

Kirish. Til inson tafakkuri, madaniyati va ijtimoiy hayotining eng muhim ifoda manbasidir. Til tizimining eng boy qatlamlaridan biri – bu frazeologizmlar bo'lib, ular xalqning ko'p asrlik tajribasi, dunyoqarashi va madaniyatini o'zida mujassam etadi. Frazeologik birliklar tilda tayyor ma'no birligi sifatida shakllangan bolib, har bir xalqning o'ziga xos obrazli tafakkur tarzini aks ettiradi. Shu boisdan ham, frazeologizmlar tilshunoslikda nafaqat leksik-semantik tizimning, balki madaniy-milliy qadriyatlarning ham muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

Flora va fauna nomlari bilan qo'llaniladigan frazeologizmlar o'ziga xos qurilishga ega hisoblanadi. Chunki, o'simlik va hayvonot dunyosi insonlarning o'z his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalarini obrazli tarzda ifoda eta oladilar. Masalan, ingliz tilidagi *busy as a bee, a snake in the grass va beat around the bush* kabi frazeologizmlar hayvon yoki o'simlik obrazlari orqali inson xulq-atvori, ruhiy holati yoki ijtimoiy holatlarini aks ettiradi. Bu kabi frazeologizmlar xalqning tabiatga bo'lgan munosabatini, shuningdek, madaniy stereotiplarini ochib beradi.

So‘nggi yillarda korpus lingvistikasining rivojlanishi ushbu frazeologizmlarni tahlil qilish uchun yangi bosqichga olib chiqishga sababchi bo‘ldi. Korpus lingvistikasiga asoslangan yondashuvlar til birliklarini katta hajmdagi haqiqiy matnlar asosida o‘rganish imkonini yaratib berdi. Asosan, COCA (Corpus of Contemporary American English) zamonaviy ingliz tilining eng yirik korpuslaridan biri bo‘lib, u orqali so‘z birikmalari, frazeologik birliklarning chastotasi (ishlatilish soni), uslubiy xususiyatlari va kontekstual ishlatilishini aniqlash mumkin.

Ushbu ilmiy maqolada COCA korpusi asosida ingliz tilidagi flora va fauna nomlari bilan bog‘liq frazeologizmlarning semantik va funksional xususiyatlari o‘rganiladi. Asosiy maqsad ushbu birliklar orqali xalqimizning obrazli tafakkurini, tabiatga munosabatini va ularning zamonaviy ingliz tilida qo‘llanilish xususiyatlarini aniqlashdir.

Adabiyotlar tahlili. Frazeologizmlarni o‘rganish tilshunoslikning eng muhim va murakkab sohalaridan biri hisoblanadi. Frazeologiya fani XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab mustaqil yo‘nalish sifatida shakllangan bo‘lib, uning rivojiga ko‘plab tilshunos olimlar o‘z hissalarini qo‘shganlar. Dastlab, frazeologizmlar leksikologiyaning tarkibiy qismi sifatida o‘rganilgan bo‘lsa, keyinchalik, ularning semantik, strukturaviy va funksional xususiyatlari alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida qaraldi.

Frazeologizmlarning nazariy asoslarini ishlab chiqqan olimlardan biri A.V.Kunin “Английская фразеология” asarida frazeologiyani til tizimining mustaqil sohasi sifatida tahlil qilgan. A.V. Kunin frazeologik birliklarni ularning kelib chiqishi, semantik yaxlitligi va funksional xususiyatlariga ko‘ra tasniflagan [4;456-b.].

G‘arb tilshunosligida esa frazeologiyani chuqur o‘rgangan olimlardan biri A.P.Cowie bo‘lib, u o‘zining “Phraseology Theory, Analysis, and Application” asarida frazeologik birliklarni “tayyor ifodalar namunasi” sifatida talqin etgan va ularni tilning tabiiy qo‘llanishida tutgan o‘rniga e’tibor bergan. Cowie fikricha, frazeologizmlar leksik birliklardan farqli o‘laroq, nutqda, ko‘p hollarda, o‘zgarishsiz, ma’no jihatdan yaxlit shaklda ishlatiladi. Tilshunos fikricha, insonlar oddiy so‘zlarga nisbatan tayyor namunalar ya’ni iboralardan foydalanishni afzal ko‘radilar [2;12-b.].

So‘nggi yillarda korpus lingvistikasining metodologiyasini frazeologik birliklar asosida o‘rganish yangi bosqichga olib chiqildi. J.Sinclair (1991) o‘zining “Corpus, Concordance, Collocation” asarida korpus asosida til birliklarini tahlil qilishning afzalliklarini ko‘rsatib berdi. Uning fikricha, tilimizda mavjud bo‘lgan korpusdagi matnlar orqali frazeologizmlarning ishlatilish chastotasi va kontekstual xususiyatlarini aniqlash an’anaviy tahlil usullariga nisbatan ancha samaraliroqdir [9].

Flora va fauna nomlari bilan bog‘liq frazeologik birliklarni o‘rganishda ko‘plab tadqiqotchilar ular ifoda etayotgan madaniy birliklarga alohida e’tibor qaratishgan. Misol uchun, W.Mieder (1991) o‘zining “the Dictionary of American Proverbs” lug‘atida xalq maqollaridagi hayvon obrazlarini o‘rganib, ular jamiyatning qadriyatlari va urf-odatlarini ifodalash vositasi ekanligini ko‘rsatib o‘tgan [6]. W.-Mieder (2004) o‘zining “Proverbs handbook” deb nomlangan o‘quv qo‘llanmasida maqollar – bu xalq og‘zaki ijodining qisqa bir turi bo‘lib, unda xalqning donoligi va a’nanaviy qarashlarini aks ettiruvchi metaforik va turg‘un usuli deb baholaydi [7;204-b.].

O‘zbek tilshunosligida ham frazeologizmlarni o‘rganish bo‘yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Sh.Rahmatullaev, A.Shomaqsudov, G‘.Mamatov va N.To‘xtayev kabi olimlar o‘zbek frazeologiyasining tizim xususiyatlari, ma’no turlari va ularning tarjima muammolarini yoritib berishgan. Ayniqsa, G‘. Mamatov (2014) ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologizmtik birliklarni qiyosiy tahlil qilib, hayvonot va o‘simlik nomlari orqali ifodalangan obrazlarning milliy tafakkurdagi o‘rnini ochib bergan. Shuningdek, tilshunos ushbu frazeologik birliklar milliy madaniyatni yaxlit va kompleks tarzda ifoda etishini ta’kidlab o‘tgan [5;136-b.].

Xulosa qilib aytganda, frazeologizmlar tildagi semantik boylikni, xalq milliy madaniyatini va metaforik tafakkur tarzini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo, tadqiqotlarning aksariyat qismi asosan, nazariy tahlilga qaratilgan bo‘lib, bunda COCA korpusi asosida, flora va fauna nomlari bilan bo‘liq frazeologizmlarining zamonaviy ingliz tilidagi funksional qo‘llanilishi yetarlicha tahlil qilinmagan. Shu sababdan ushbu ilmiy maqola korpus tahliliga asoslangan bo‘lib, mavjud ilmiy qarashlarning mantiqiy davomi bo‘la oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning metodologiyasi korpus lingvistikasi yondashuviga tayangan bo‘lib, flora va fauna nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan frazeologik birliklarni tahlil qiladi. Korpus lingvistikasi – bu til birliklarini real matnlar asosida tahlil qilishga yordam beruvchi ilmiy yondashuv bo‘lib, u tadqiqotchiga so‘zlarning va iboralarning chastotasi hamda funksional xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi.

Ushbu maqolada tadqiqot obyekti sifatida ingliz tilidagi flora va fauna nomlari bilan bog‘liq frazeologizmlar tanlab olindi. Tadqiqotning asosiy maqsadi mazkur frazeologizmlarning zamonaviy ingliz tilida qanday qo‘llanilishinini COCA korpusi yordamida tahlil qilishdan iboratdir.

Tadqiqot materiali sifatida COCA (Corpus of Contemporary American English) korpusi tanlab olindi. Ushbu korpus bir milliarddan ortiq so‘zlarni o‘zida jamlagan bo‘lib, ingliz tilidagi turli uslublarini ya’ni spoken, *fiction, magazine, newspaper, academic* turlarini qamrab olgan. Bu esa frazeologik birliklarning turli kontekstlarda qo‘llanilish xususiyatlarini tahlil qilishga yordam beradi. Bunda frazeologizmlarning qo‘llanilish chastotasi aniqlanildi va ushbu COCA platformasida har bir birlik alohida qidiruv tugmasi orqali o‘rganildi va ular birlik uchun quyidagi ko‘rsatkichlar qayd etildi: ishlatilish chastotasi (frequency); ushbu birliklarning ma’nosi, uslublar (register): *spoken, fiction, magazine, news, academic*.

COCA korpusidagi natijalar, asosan, Amerika ingliz tili variantiga asoslangan bo‘lib, Britaniya ingliz tilisidagi farqlar bu tadqiqot doirasida ko‘rib chiqilmadi.

Natijalar. Tadqiqot davomida COCA korpusidan jami 12 ta flora va 12 ta fauna nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan frazeologizmlar tanlab olindi. Ularning umumiy chastotasi 4463 dan ortiq holatni tashkil etdi. Tahlil natijalariga ko‘ra, zoonomik iboralar fitonim frazeologik birliklariga qaraganda nisbatan sezilarli darajada ko‘p qo‘llanilgan.

1-jadval

Fauna nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan frazeologizmlarining chastotasi (COCA korpusi ma’lumotlariga ko‘ra)

№	Frazeologizmlar	Ma’nosi	Chas-totasi	Uslubi
1.	A wild goose chase	Behuda yoki natijasiz izlanish	138	Televideniya/ film
2.	Go out on a limb	Qat’iy yoki jasoratli fikrni bildirish orqali xavf ostida qolmoq	394	Blog
3.	Busy as a bee	Juda band	8	Televideniya/ film
4.	A snake in the grass	Yashirin dushman	28	Televideniya/ film
5.	**Eager beaver**	Juda ishtiyoqli va mehnatkash odam	43	Televideniya/ film
6.	The black sheep	Boshqalardan farq qiladigan inson	222	Televideniya/ film
7.	Cry wolf	Yolg‘on xavf-xatar haqida bong urish	99	Blog
8.	A fish out of water	O‘zini noqulay his qilish	145	Televideniya/ film
9.	The elephant in the room	Hamma biladigan, lekin hech kim gapirmaydigan katta muammo	396	Blog
10.	Let sleeping dogs lie	Eski muammoni uyg‘otmaslik	82	Badiiy adabiyotlar
11.	**Hold your horses**	Shoshilmaslik, sabr-toqatli bo‘lish	260	Televideniya/ film
12.	**Straight from the horse’s mouth**	Ishonchli manbadan olingan ma’lumot	42	Televideniya/ film

2-jadval

Flora nomlari bilan bo‘liq bo‘lgan frazeologizmlarining chastotasi (COCA korpusi ma’lumotlariga ko‘ra)

№	Frazeologizmlar	Ma’nosi	Chast otasi	Uslubi
1.	Nip it in the bud	Muammoni kattalashmasdan oldin bartaraf etmoq; muommoni boshlanishidan oldin to‘xtatmoq	87	Televideniya/film
2.	Beat around the bush	Muommoga to‘g‘ridan to‘g‘ri kirmaslik; gapni aylantirib gapirmoq	172	Televideniya/film
3.	Barking up the wrong tree	Noto‘g‘ri insonni ayblamoq; adashmoq	185	Televideniya/film
4.	The grass is always greener	Boshqalarning hayoti yaxshiroq deb o‘ylamoq; o‘z hayotidan norozi bo‘lmoq	79	Veb-sahifalar, Televideniya/film
5.	Out of the woods	Xavf yoki qiyinchilikdan qutulmoq	1063	Badiiy adabiyotlar
6.	Touch wood	Yaxshi narsani aytganda, yomon narsalardan saqlanish uchun harakat qilmoq	34	Veb-sahifalar
7.	Put down roots	Bir joyda turg‘un yashashni boshlamoq; barqaror hayot tarzini boshlamoq	171	Yangiliklar

8.	**As fresh as a daisy**	O‘zini tetik, quvnoq va sog‘lom his qilmoq	6	Jurnal
9.	To blossom (into something)	Rivojlanmoq; yuksalmoq; gullab-yashnamoq	381	Jurnal
10.	**To gild the lily**	Keraksiz narsaga ortiqcha baho bermoq	7	Yangiliklar
11.	A late bloomer	Kech rivojlangan inson; muvaffaqiyatga kech erishgan inson	194	Yangiliklar
12.	Go to seed	Avvalgi holatini yo‘qotmoq; sifati pasaymoq	109	Jurnal

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, fauna frazeologizmlari 854 marta (63.9%), flora frazeologizmlari esa 1609 marta (36.1%) qo‘llanilgan. Bu natija bilan ingliz tilidagi hayvon obrazlari inson xatti-harakatlarini ifodalashda metaforik va baholovchi vosita sifatida keng ishlatilganini ko‘rishimiz mumkin.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, COCA korpusida fauna komponentli frazeologizmlar flora komponentli birliklarga nisbatan sezilarli darajada ko‘proq uchraydi. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, ingliz xalqining xarakteri, xatti-harakatlari va munosabatlarini ifodalashda tilda hayvon obrazlarini qo‘llash an’anasi mavjud ekan. Flora komponentli frazeologizmlar esa asosan abstrakt holatlarni ifodalashda ishlatiladi. Bu esa o‘simlik dunyosi obrazlari ko‘proq jarayon va holatlarni ifodalashga asoslanishini ko‘rsatadi.

COCA korpusidan foydalanish natijalarning qanchalik ishonchli ekanligini ko‘rsatib berdi. Qis-qa qilib aytganda, tahlil uchun olingan frazeologik birliklarning qanchalik tez-tez yozma hamda og‘zaki matnlarda qo‘llanilishi, qaysi uslubdan foydalanilganligi statistik yondashuv asosida ochib berildi. Shu bilan birga, COCA kabi katta korpusga asoslangan tadqiqotlar ilmiy tahlilga tayangan holda ma’lumotlarni real tarzda ko‘rsata olishini isbotlab berdi.

Xulosa. Mazkur maqola ingliz tilidagi flora va fauna nomlari bilan qo‘llaniladigan frazeologik birliklarning COCA korpusi materiali asosida tahlil qilishni ko‘rsatib berdi. Ushbu olingan natijalarga tayangan holda aytish mumkinki, fauna frazeologizmlari flora frazeologizmlariga nisbatan ko‘proq ishlatilgan. Xususan, ular inson xarakteri, xatti-harakati va munosabatlarini ifodalashda faol qo‘llanilgan. Fl-ora frazeologizmlari esa ko‘proq jarayonlar, holatlar va natijalarni ifodalashda ishlatilgan. Qisqa qilib aytganda, COCA korpusi real nutqdagi frazeologizmlar qo‘llanilishini aniqlashda aniq, empirik va ishonchli manba bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari ingliz frazeologiyasining madaniy, semantik va pragmatik asoslarini chuqur-roq tushunishga yordam berdi. Shuningdek, u lingvokulturologiya, tarjima nazariyasi va amaliyoti fan-larida frazeologizmlar tarjima muammolarini ochiqlashda amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Biber D., Conrad S., Reppen R. Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998, p. 49–48.

(2). Cowie A.P. Phraseology. Theory, Analysis, and Applications. Oxford: Oxford University Press, 1998, p. 12.

(3). Davies M. The Corpus of Contemporary American English (COCA). 2008. https://www.english-corpora.org/coca/

(4). Kunin A.V. Английская фразеология. Москва, “Высшая школа”, 1986, p. 456.

(5). Mamatov G‘. Ingliz tilining frazeologik birliklari. Toshkent, 2014, 136-bet.

(6). Mieder W., Kingsbury S.A., Harder K.B. A Dictionary of American Proverbs. New York, Oxford University Press, 1991.

(7). Mieder W. Proverbs. A Handbook. Westport, CT: Greenwood Press, 2004, p. 204.

(8). Moon R. Fixed Expressions and Idioms in English. Oxford, Clarendon Press, 1998, p. 45–49.

(9). Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. Oxford, Oxford University Press, 1991.